



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2



ASHUROV Ulug'bek Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
boshqarma boshlig'i, adliya katta maslahatchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID-0009-0003-1425-583X
E-mail: ashulugbek@gmail.com

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH SOHASIDAGI O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): ASHUROV U.E.
Jinoatchilikning oldini olish sohasidagi O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 107-114.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-011>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Mazkur maqolaning maqsadi jinoyatchilikning oldini olishning zamonaviy modellarini o'rganish, O'zbekistonning mavjud qonunchilik bazasi va amaliyotini baholash, shuningdek, xalqaro va xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolani yozish jarayonida rasmiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tarkibiy va statistik metodlardan foydalanilgan. Tahlillar natijasida Yaponiyada jamoatchilikka asoslangan "koban" tizimi, Germaniyadagi "ishonchli dalillarga asoslangan preventiv profilaktika tizimining yondashuvi", Janubiy Koreyadagi "sun'iy intellekt va videokuzatuv texnologiyalari", shuningdek, BMTning jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha xalqaro standartlari va tavsiyalari o'rganilgan va O'zbekiston amaliyoti bilan o'zaro taqqoslangan. Maqolada O'zbekistonning jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi qonunchiligini xalqaro standartlar va andozalar asosida takomillashtirishga doir bir qancha aniq tavsiyalar bildirilgan. Xususan, O'zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish istiqbollari, sohaga doir ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, ya'ni "mahalla an'analari", "oilaviy va qo'shnichilik munosabatlari"ni hisobga olingan holda moslashtirilgan o'ziga xos modelni ishlab chiqish lozimligi huquqiy jihatdan asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilikning oldini olish, qiyosiy huquq, "koban" tizimi, kiberjinoyat, jamoatchilik xavfsizligi, profilaktika, O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro standartlar, jamoat xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

АШУРОВ Улугбек Эркинович

Начальник управления Генерального прокуратура
Республики Узбекистан, старший советник юстиции,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)
ORCID-0009-0003-1425-583X
E-mail: ashulugbek@gmail.com

ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СФЕРЕ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен сравнительно-правовой анализ опыта Республики Узбекистан и зарубежных стран в сфере профилактики преступности. Целью данной статьи является изучение

современных моделей предупреждения преступности, оценка существующей законодательной базы и практики Узбекистана, а также выявление возможностей использования международного и зарубежного опыта. В процессе написания статьи использованы формально-юридический, сравнительно-правовой, системно-структурный и статистический методы. В результате анализа были изучены и сопоставлены с практикой Узбекистана общественно-ориентированная система «koban» в Японии, «подход к системе превентивной профилактики, основанный на достоверных доказательствах» в Германии, «технологии искусственного интеллекта и видеонаблюдения» в Южной Корее, а также международные стандарты и рекомендации ООН по предупреждению преступности. В статье представлен ряд конкретных рекомендаций по совершенствованию законодательства Узбекистана в сфере предупреждения преступности на основе международных стандартов и стандартов. В частности, разработаны предложения, направленные на перспективы эффективного использования цифровых технологий в профилактике преступности в Узбекистане, совершенствование деятельности научно-исследовательских институтов в данной сфере. Также с правовой точки зрения обоснована необходимость разработки уникальной модели, адаптированной с учетом социально-культурных особенностей Узбекистана, то есть «традиций махалли», «семейных и соседских отношений».

Ключевые слова: предупреждение преступности, сравнительное право, система koban, киберпреступность, общественная безопасность, профилактика, законодательство Узбекистана, международные стандарты, общественная безопасность, предотвращение преступлений.

ULUGBEK Ashurov

Head of the Department of the Prosecutor General's
Office of the Republic of Uzbekistan, Senior Justice Advisor,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law
ORCID-0009-0003-1425-583X
E-mail: ashulugbek@gmail.com

EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION

ANNOTATION

This article presents a comparative legal analysis of the experiences of the Republic of Uzbekistan and foreign countries in the field of crime prevention. The purpose of this article is to study modern crime prevention models, evaluate the existing legislative framework and practices in Uzbekistan, and identify opportunities for utilizing international and foreign experience. The formal-legal, comparative-legal, systemic-structural, and statistical methods were used in the process of writing this article. As a result of the analysis, Japan's community-oriented "koban" system, Germany's "evidence-based approach to the preventive system," South Korea's "artificial intelligence and video surveillance technologies," and the UN's international standards and recommendations on crime prevention were studied and compared with the practices in Uzbekistan. The article provides a number of specific recommendations for improving Uzbekistan's legislation on crime prevention based on international standards and models. In particular, proposals have been developed for the effective use of digital technologies in crime prevention in Uzbekistan and for improving the activities of research institutes in this field. Furthermore, the necessity of developing a unique model adapted to Uzbekistan's socio-cultural characteristics, namely the "traditions of the mahalla" and "family and neighborly relations," is legally substantiated.

Keywords: crime prevention, comparative law, koban system, cybercrime, public safety, prophylaxis, Uzbekistan legislation, international standards, public safety, crime prevention.

Jinoyatchilik insoniyatning eng qadimgi va murakkab ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib, har bir davlatning ichki xavfsizligiga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, shuningdek, jamiyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikni oldini olish va jinoiy adolat komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, jinoyatchilikning oldini olish strategiyalari faqatgina jinoyat va jabrlanishni kamaytirib qolmay, balki barqaror rivojlanishga ham sezilarli hissa qo'shadi [1]. Bugungi kunda jahon hamjamiyati jinoyatchilikka qarshi kurashishning an'anaviy repressiv usullaridan tobora ko'proq profilaktik yondashuvlarga o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish tizimini shakllantirish va takomillashtirish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirdi. Biroq, globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, kiberjinoyatlar ko'lamining keskin oshishi va transmilliy jinoyatchilikning kuchayishi sharoitida mavjud profilaktika tizimini yanada takomillashtirish zarurati sezilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda jami 132 298 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, shundan 59,4 foizi yoshlar tomonidan, 36,1 foizi esa takroriy jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan. Ayniqsa, kiberjinoyatlar ko'lami keskin ko'tarilib, 2024-yilda 58 800 ta kiberjinoyat ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 97,7 foizi fuqarolarning bank kartasi mablag'lariga firibgarlik yo'li bilan ega bo'lishga qaratilgan [2]. Shu ma'noda, jinoyatchilikning oldini olish sohasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish tizimi mustaqillik yillarida bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Bugungi kunda ushbu tizimning huquqiy asosini birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 va 15-moddalari, Jinoyat kodeksining 2-moddasi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks, shuningdek bir qator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari tashkil etadi.

Ta'kidlash lozimki, jinoyatchilikni oldini olish, uning sabablarini o'rganishda mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarorining eng muhim maqsadlaridan biri sifatida oila-turmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni "ilmiy xulosa – tavsiya – natija" tamoyili asosida joylarga chiqqan holda maqsadli ilmiy-amaliy o'rganish orqali samarali tashkiliy-huquqiy choralarni belgilash maqsad qilib olingan.

Mamlakatimiz olimlari S.Niyozova va N.Salayev tomonidan xotin-qizlarga nisbatan ishlatilayotgan jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan sharoitlar quyidagi uchta guruhga ajratilgan:

1. Umumijtimoiy darajadagi sabab va shart-sharoitlar;
2. Guruhiy darajadagi sabab va shart-sharoitlar;
3. Shaxsiy darajadagi sabab va shart-sharoitlar.

Ularning fikricha, xotin-qizlarga nisbatan jinoyatchilikni ilmiy nuqtai nazardan o'rganishda ayni ushbu doctrinal yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi [3].

L.V.Frank fikricha, jinoyatdan jabrlanuvchining xulq-atvori va shaxsiyatini o'rganish uchta asosiy jihatga asoslanadi: jabrlanuvchining maqomi (statusi), uning dunyoqarashi, jamiyatda tutgan o'rni [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan

yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi [5]. Ushbu institutning asosiy vazifalari jumlasiga hududlar kesimida kriminogen vaziyatni ilmiy jihatdan baholash, jinoyatchilik omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish kiradi. Bu o'zgarish jinoyatchilikning oldini olishga ilmiy yondashuvning mustahkamlanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, quyidagilar mazkur institutning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- respublikadagi kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash;

- hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralarining samaradorligini ilmiy jihatdan baholash, shuningdek, ilmiy tahlil, prognoz va diagnoz xulosalariga asoslangan holda, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali jinoyatchilik omillarini bartaraf etish choralarini ishlab chiqish;

- ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali kriminologik faoliyat amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil etish;

- jamoatchilik o'rtasida shov-shuvga sabab bo'lgan jinoyatlarning omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishda belgilangan tartibda mutaxassis sifatida surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko'maklashish;

- jahon kriminologiyasi va xorijiy davlatlar kriminologik faoliyat to'g'risidagi qonunchiligining ilg'or tajribalarini doimiy o'rganish hamda uning natijalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitlarida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

- kriminologiya sohasi bo'yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida oliy malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash, talabgorlarni belgilangan tartibda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga taqdim etish.

Yaponiya jahonda eng past jinoyatchilik darajasiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Yaponiyaning qotillik darajasi AQShning 20 foizidan, o'g'irlik darajasi esa 30 foizidan kamni tashkil etadi [6]. Bu natijalarga erishishda "koban" (交番) tizimi – mahalladagi politsiya shaxobchalari muhim rol o'ynagan. "Koban" tizimi 1874-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda jamoatchilikka asoslangan politsiya modelining dunyodagi eng samarali namunalaridan biri sifatida tan olingan [7]. "Koban" tizimining asosiy o'ziga xosligi shundaki, politsiya xodimlari mahalla aholisi bilan bevosita va muntazam muloqotda bo'lishadi. Har bir "koban" xodimi tegishli hududdagi uy-joylarga muntazam tashriflar uyushtirib, o'zlarini tanishtiradi, jinoyatchilikdan saqlanish bo'yicha maslahatlar beradi va aholining xavfsizlik ehtiyojlari to'g'risida ma'lumot to'playdi. Bu yondashuv politsiya va jamoatchilik o'rtasida ishonch munosabatlarini mustahkamlaydi va axborot almashinuvini yaxshilaydi.

Yaponiyada qayd etilgan jinoyatlar soni 2002-yildagi 2,85 milliondan 2020-yilga kelib 914 920 taga kamaygan. Bu muvaffaqiyatga erishishda quyidagi omillar muhim rol o'ynagan: birinchidan, hukumatning jamoatchilikni jinoyatchilikning oldini olishga faol jalb qilish irodasi; ikkinchidan, jamoatchilik politsiya xodimlari sonini ko'paytirish va nafaqaga chiqqan politsiya xodimlaridan foydalanish; uchinchidan, mahalliy jamoat tashkilotlari, maktablar va biznes sektori o'rtasida keng ko'lamlilik hamkorlik tarmog'ini yaratish [6].

Yaponiyada ko'ngilli jinoyatchilikni oldini olish harakati alohida ahamiyatga ega. 2014-yil oxiriga kelib, 48 000 dan ortiq ko'ngilli jinoyatchilikni oldini olish tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lib, ularning a'zolari soni taxminan 2,8 million kishini tashkil etgan. 2004-yil dekabridan boshlab "ao-pato" (ko'k patrul) tizimi joriy etilib, ko'ngillilar politsiya bergan ko'k chiroqlar bilan jihozlangan mashinalarda mahallalarni patrul qilmoqda. 2014-yil oxiriga kelib Yaponiyada taxminan 44 000 ta "ao-pato" faoliyat yuritgan. "Koban" tizimining muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan ijtimoiy-madaniy omillar ham alohida ta'kidlashga arziydi. Yapon jamiyatiga xos jamoaviylik va normalarga rioya

qilish madaniyati jamoatchilik politsiyasining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, "koban" modeli bir qator mamlakatlarda Braziliya, Hindiston, Malayziya, Filippin, Singapur va ba'zi Germaniya shaharlarida o'zlashtirilgan [7].

Germaniya Yevropada jinoyatchilikning oldini olishning institutsional tizimini eng keng miqyosda rivojlantirgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Germaniyaning jinoyatchilikni oldini olish tizimining o'ziga xos xususiyati uning ko'p bosqichli huquqiy tabiatidadir: federal, davlat (land) va mahalliy hokimiyatlar birgalikda harakat qilishadi.

Federal darajada Germaniya Jinoyatchilikni oldini olish forumi (Deutsches Forum für Kriminalprävention – DFK) va Federal jinoiy politsiya boshqarmasi jinoyatchilikni oldini olish strategiyasini ishlab chiqish va muvofiqlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Federal jinoiy politsiya boshqarmasi jinoyat statistikasini yillik asosda to'plab, tahlil qiladi va potensial jinoyat tendensiyalarini erta bosqichda aniqlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, Federal jinoiy politsiya boshqarmasi konkret holatlarni tahlil qilish va jinoyatchi profillarini tuzish orqali davlat politsiya organlariga amaliy ko'mak ko'rsatadi [10].

Germaniyadagi jinoyatchilikni oldini olish tizimining muhim xususiyatlaridan biri – ijtimoiy integratsiya orqali profilaktika tamoyilidir. T.Feltes ta'kidlaganidek, Germaniyada jamoat birdamligini mustahkamlash jinoyatchilikning oldini olishning yaxlit yondashuvi sifatida qaraladi [11]. Bu yondashuvning markaziy maqsadi jamoatni tashqi yordamsiz xavf-xatarlarga qarshi tura olish va o'z a'zolarini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Maktablarda jinoyatchilikning oldini olish dasturlari Germaniyaning profilaktika tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. "PIT" (Prevention in Team – Jamoada profilaktika) dasturi 6 va 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchilar va politsiya xodimlari birgalikda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan darslar o'tishadi [12]. Shu bilan birga, "muammoga yo'naltirilgan politsiya" (problem-oriented policing) va "ishonchli dalillarga asoslangan politsiya" (evidence-based policing) tamoyillari samarali natijalar ko'rsatayotganligi ta'kidlanmoqda [13].

Janubiy Koreya jinoyatchilikning oldini olishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha jahonda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Seul shahar hokimligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda beshta asosiy jinoyat turi qotillik, o'g'rilik, to'g'irlik, zo'rlik va jinsiy zo'ravonlik bo'yicha ko'rsatkich 2015-yildagi 126 000 dan 86 000 ga tushgan. Seulda 2024-yil oxiriga kelib 113 273 ta kuzatuv kamerasi ishlab turgan bo'lib, ular jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o'ynamoqda. Xususan, so'nggi ikki yil ichida kameralar yordamida 358 ta shubhali narkotik jinoyati aniqlangan va 36 ta shubhalanuvchi qo'lga olingan. 2025-yilda raqamli xavfsiz shahar loyihasi uchun 51,3 milliard von (taxminan 37 million AQSh dollari) ajratilgan [14].

Janubiy Koreyaning innovatsion yondashuvlari orasida sun'iy intellekt asosidagi aqlli videokuzatuv kameralari alohida o'rin tutadi. Bu kameralar yiqilish, hujum va boshqa shubhali harakatlarni avtomatik ravishda aniqlab, monitoring markaziga videotasvir yuborish imkonini beradi. Bundan tashqari, 9 ta ko'rsatkichga jinoyatchilik darajasi, yakka yashovchi uy xo'jaliklari ulushi va boshqalarasoslangan katta ma'lumotlar (big data) tahlili orqali yuqori xavfli hududlar aniqlanmoqda [15].

Koreya elektron va telekommunikatsiya tadqiqot instituti (ETRI) o'tgan jinoyat statistikasi va videokuzatuv tasvirlariga asoslangan holda jinoyatlar ehtimolligini real vaqtda baholovchi prognozli videokuzatuv texnologiyasi ustida ishlamoqda [16]. Bu texnologiya jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan hudud va vaqtni oldindan aniqlash imkonini yaratadi, bu esa politsiya resurslaridan samaraliroq foydalanishga yordam beradi.

BMT jinoyatchilikning oldini olish sohasida bir qator standart va normalar ishlab chiqqan. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining 2002-yil 13-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar" (Guidelines for the Prevention of Crime)

jinoyatchilikni oldini olishni quyidagicha ta'riflaydi: "Jinoyatchilikni oldini olish jinoyatlar sodir etilishi xavfini va ularning shaxslar hamda jamiyatga salbiy oqibatlarini, shu jumladan jinoyatchilik qo'rquvini kamaytirishga qaratilgan strategiya va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi" [1].

BMTning jinoyatchilikni oldini olish strategiyalari to'rt asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchidan, ijtimoiy rivojlanish orqali oldini olish jinoyatchilikning ildiz sabablariga kambag'allik, ta'limsizlik, oilaviy muammolar, ishsizlikka ta'sir ko'rsatish; ikkinchidan, vaziyatga asoslangan oldini olish jinoyat sodir etish imkoniyat va sharoitlarini kamaytirish; uchinchidan, jamoat faoliyati orqali oldini olish mahalliy jamoatlarning jinoyatchilikka qarshi hamkorligini kuchaytirish; to'rtinchidan, rivojlanish bosqichidagi oldini olish bolalar va yoshlarda jinoiy xulqning rivojlanishini oldini olish [17].

Qayd etish kerakki, O'zbekistonning mahalla tizimi jamoatchilik ishtiroki uchun tabiiy platforma bo'lib, u Yaponiyada koban tizimida ko'ngillilarning o'ynagan rolga o'xshash funksiyani bajarish imkoniyatiga ega. Biroq, O'zbekistonda mahalla faollarining jinoyatchilikni oldini olish funksiyalari hali to'liq institutsionallashtirilmagan. Yaponiyadagidek muntazam uy tashriflari, axborot to'plash va mahalliy xavfsizlik auditi tizimini joriy etish O'zbekiston uchun samarali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Yapon tajribasidan ma'lumki, jamoatchilik ishtirokining samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy-madaniy kontekstga bog'liq. Yaponiyaga xos jamoaviylik va normalarga bo'ysunish madaniyati bu tizimning muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shgan. Shuning uchun, O'zbekistonga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar mahalla an'analari, oilaviy va qo'shniçilik munosabatlari hisobga olingan holda moslashtirilgan model ishlab chiqish lozim.

O'zbekistonda videokuzatuv tizimi oxirgi yillarda kengaytirilmoqda, ammo Janubiy Koreyadagidek sun'iy intellekt asosidagi aqlli kameralar va prognozli tahlil tizimlari hali keng miqyosda joriy etilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-153-son qarori axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi yangi chora-tadbirlarni belgilagan [18], ammo bu boradagi islohotlar hali boshlang'ich bosqichda. Shu munosabat bilan, Janubiy Koreyaning big data tahlili va SI asosidagi videokuzatuv tajribasidan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalarni joriy etishda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi masalasini ham hisobga olish zarur. Germaniya tajribasidan ma'lumki, raqamli kuzatuv vositalaridan keng foydalanish fuqarolar shaxsiy hayotining daxlsizligi bo'yicha jiddiy munozaralarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekistonda ham videokuzatuv tizimlarini kengaytirish jarayonida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tegishli qonunchilik kafolatlari o'rnatilishi lozim.

O'zbekistonda takroriy jinoyatchilar barcha jinoyatlarning 36,1 foizini sodir etmoqda [2], bu esa rehabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya tizimining samaradorligi masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. 2021-yilgi Kioto Deklaratsiyasi va 2025-yilda ko'rib chiqilishi belgilangan "Kioto model strategiyalari" takroriy jinoyatchilikni kamaytirishni jinoiy adolat aralashuvlarining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilaydi [19].

O'zbekistonda jinoyat sodir etgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish tizimini mustahkamlash zarur. Buning uchun, birinchidan, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida kasb-hunar o'rgatish dasturlarini kengaytirish; ikkinchidan, jazoni o'tab chiqqan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun ishlab chiqaruvchilarga imtiyozlar joriy etish; uchinchidan, probatsiya xizmatining shaxsiy rehabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish tizimini takomillashtirish lozim.

Yuqoridagi tahlil va xulosalar asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunga "Jamoatchilik ishtirokida jinoyatchilikning oldini olish" degan alohida bob kiritish taklif etiladi. Bu bobda mahalla

ko'ngillilarining huquqiy maqomi, ularni tayyorlash tartibi, moliyalashtirish mexanizmlari va politsiya bilan hamkorlik shakllari belgilanishi kerak. Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, "mahalla xavfsizlik ko'ngillilari" institutini tashkil etish va ularning muntazam reydlar o'tkazish tartibini normativ tartibda mustahkamlash lozim.

Ikkinchidan, "Jinoyatchilikning oldini olishda raqamli texnologiyalarni qo'llash konsepsiyasi"ni ishlab chiqish lozim. Ushbu konsepsiya sun'iy intellekt asosidagi aqlli videokuzatuv kameralarini joriy etish, big data tahlili orqali jinoyatga moyil hududlarni aniqlash va prognozli politsiya tizimini bosqichma-bosqich joriy etish masalalarini qamrab olishi lozim. Janubiy Koreyaning Seul shahri tajribasi ushbu konsepsiyaning modelidir.

Uchinchidan, Kriminologik tadqiqot instituti faoliyatini "dalillarga asoslangan" (evidence-based) tamoyil asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Buning uchun: a) barcha jinoyatchilikni oldini olish dasturlari va loyihalarining samaradorligini ilmiy baholash (evaluation) majburiy tartibga aylantirilishi; b) Germaniyaning tajribasidan foydalanib, har yili "O'zbekistonda jinoyatchilikni oldini olish: holat va istiqbollar" degan milliy hisobot chop etilishi; v) xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari bilan doimiy hamkorlik o'rnatilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchilikning oldini olish bugungi kunda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki butun jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatini talab qiladigan kompleks ijtimoiy-huquqiy jarayondir. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish O'zbekistonning jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. UNODC. Guidelines for the Prevention of Crime. ECOSOC Resolution 2002/13. United Nations Office on Drugs and Crime. <https://www.unodc.org/unodc/justice-and-prison-reform/cpcj-crimeprevention-home.html>
2. Crime rate in Uzbekistan: MIA reports nearly 200 offenses per 100,000 people for 2024. <https://kun.uz/en/news/2025/02/27/crime-rate-in-uzbekistan-mia-reports-nearly-200-offenses-per-100000-people-for-2024>
3. S.Niyozova, N.Salayev. Kriminologiya (maxsus qism). Darslik. T.: 2024. TDYU nahsriyoti. 153-b. <https://library-tsul.uz/kriminologiya-maxsus-qism-niyozova-s-salayev-n-2024/>
4. Франк Л.В. Виктимология и виктимность: Душанбе. 1972. – В.8-12. [Frank L.V. Victimology and victimization. Dushanbe. 1972. P.8-12].
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.01.2024-yildagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6755597>
6. Hino K. Plus Bouhan: A new community-based approach to crime prevention in Japan. International Journal of Law, Crime and Justice. 2018;53:78-90. doi:10.1016/j.ijlcrj.2018.03.002
7. Héra G. The Japanese kōban community policing system. Belügyi Szemle. 2024;1:1-25. <https://www.researchgate.net/publication/377804573>
8. Hino K, Chronopoulos T. A review of crime prevention activities in a Japanese local government area since 2008: Beautiful Windows Movement in Adachi Ward. Crime Prevention and Community Safety. 2021;23:256-275. doi:10.1057/s41300-021-00114-w
9. Hino K. Plus Bouhan: A new community-based approach to crime prevention in Japan. International Journal of Law, Crime and Justice. 2018;53:78-90. doi:10.1016/j.ijlcrj.2018.03.002
10. Bundeskriminalamt (BKA). Crime Control Strategy. https://www.bka.de/EN/OurTasks/Remit/CentralAgency/CrimeControlStrategy/crimeControlStrategy_node.html
11. Feltes T. Community Policing in Germany. In: IFSH (ed.), OSCE Yearbook 2013. Baden-Baden; 2014. pp. 219-230.
12. Kriminalistisch-kriminologische Forschungsgruppe. Crime Prevention in Germany: Selected Projects. 2004. <https://www.kriminalpraevention.de/files/DFK/sprachen/en/09selected-projects-2004.pdf>
13. Bundeskriminalamt (BKA). Crime Control Strategy. https://www.bka.de/EN/OurTasks/Remit/CentralAgency/CrimeControlStrategy/crimeControlStrategy_node.html

14. Enhanced CCTV surveillance bolsters crime prevention across Seoul. The Korea Times, August 18, 2025. <https://www.koreatimes.co.kr/southkorea/law-crime/20250819/enhanced-cctv-surveillance-bolsters-crime-prevention-across-seoul>

15. Seoul Metropolitan Government. Smart Public Safety. <https://english.seoul.go.kr/seoul-policy-archive/smart-public-safety/>

16. IFSEC Global. The use of AI in predicting future crime in South Korea. 2020. <https://www.ifsecglobal.com/video-surveillance/the-use-of-ai-in-predicting-future-crime-in-south-korea/>

17. UNODC. Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making them work. United Nations, New York; 2010. https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/Handbook_on_Crime_Prevention_Guidelines_-_Making_them_work.pdf

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2025-yildagi "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-153-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2025-y., 07/25/153/0411-son. <https://www.lex.uz/ru/docs/-7511145>

19. UNODC. Crime Prevention and Criminal Justice Reform — Model Strategies on Reducing Reoffending. 2025. <https://www.unodc.org/unodc/justice-and-prison-reform/cpcj-model-strategies-on-reducing-reoffending.html>

YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 2

LAWYER HERALD

ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2

2026-YIL